

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARNI QO’LLASHNING AFZALLILKLARI

Egamova Nigora Ustamirzayevna

NamSIFL

O‘qituvchisi.

nigoraegamova2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik afzalliliklari, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi roli hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif interaktiv metodlarning turli shakllarini ko‘rib chiqib, ularning boshlang‘ich ta’limga mos keluvchi jihatlarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, faol o‘qitish, dars samaradorligi, muloqotli o‘qitish.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlardan voz kechilib, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantiruvchi interaktiv metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqla, boshlang‘ich sinflarda bu yondashuv bolalarning psixologik va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadi, fikrlaydi, bahs yuritadi va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi.

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda o‘qituvchilarning o‘rni benihoya katta. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlod tarbiyasida yo‘l ko‘rsatuvchi, ularning tafakkuri va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi asosiy shaxslardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi faqat darslik materiallari bilan cheklanib qolmasdan, har bir darsga ijodiy yondashib, yangilik yaratishi, kichik bo‘lsa-da, metodik kashfiyotlar qilishi zarur. Chunki hozirgi zamon o‘quvchisi ilg‘or fikrlaydi, tez o‘zgarayotgan dunyo sharoitida e’tiborini jamlash va dars davomida faol bo‘lishi uchun pedagogdan yangicha yondashuv talab qilinadi.

Shu bois dars jarayonini turli ko‘rgazmalar, interaktiv mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali tashkil etish o‘quvchilarda bilimga qiziqish uyg‘otadi, ularning nutq madaniyati va tafakkur doirasi kengayishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida darsda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Mavzuni tushunish osonlashadi, dars zerikarli kechmaydi va har bir bola o‘zini dars jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi.

Shuningdek, bolalarda mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik va ijodkorlik ko‘nikmalari nafaqat dars paytida, balki o‘yinlarda, tabiat qo‘ynida bo‘ladigan sayohatlarda ham rivojlanadi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarni faollashtirishda, ularga tashabbus ko‘rsatish, yangicha yondashuvlarni taklif qilish imkonini beradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish ayniqsa muhim. Ular o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshirishda, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda, guruhda ishslash madaniyatini shakllantirishda va o‘zaro hurmat asosida muloqot olib borishda samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchi dars davomida ko‘rgazmali materiallar bilan ishlarkan, mustaqil fikr bildiradi, o‘z qarashlarini ifoda etadi va dunyoqarashi boyiydi. Eng asosiysi, bu usullar o‘quvchilarning hayotga, atrof-muhitda kechayotgan jarayonlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Har bir interaktiv metod o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. O‘yinli metodlarda qatnashish uchun bolalar o‘yin qoidalarini tushunishi, ularga amal qilishi, shuningdek o‘yin davomiyligi dars vaqtiga to‘g‘ri muvofiqlashtirilishi muhim. Interaktiv uslublar sinfdagi eng sokin yoki tortinchoq o‘quvchini ham dars jarayoniga jalb qilishga yordam beradi.

Dars boshlanishidan oldin interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning e’tiborini jamlashga, ularda ijobiy ruhiy holatni shakllantirishga, darsga tayyorlik holatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida darslikdagi murakkab mavzularni yengilroq o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Interaktiv yondashuvlar bilim olish jarayonini zavqli, samarali va ta’sirchan qiladi.

Interaktiv metod – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqotga asoslangan ta’lim metodidir. Bu metodlarda o‘quvchilar bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni mustaqil izlanish, bahs va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Misollar sifatida “Aqliy hujum”, “Fishbone”, “Insert”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Guruhli ish” metodlarini keltirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatidan faol, o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘lishgani sababli ularga quyidagi interaktiv metodlar ayniqsa samarali:

- O‘yinli metodlar: didaktik o‘yinlar, dramalashtirish, rol o‘ynash.
- Tasviriy metodlar: rasm, sxema, grafiklar orqali ifodalash.
- Jamoaviy metodlar: kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish.

Agar afzalliklari haqida aytadigan bo‘lsak, quydagilardan tashkil etadi:

Faollikni oshiradi: o‘quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Qiziqish uyg‘otadi: o‘yin va muhokama asosida qurilgan darslar bolalarga yoqadi.

Muloqot ko‘nikmasini shakllantiradi: o‘quvchilar o‘z fikrini ifoda etishga o‘rganadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: muammoli vaziyatlar orqali yangicha yondashuvni o‘rganadi.

Mustaqil ishlashga o‘rgatadi: bilimni o‘zi izlab topish va amalda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

Shuni ham aytish joizki, o‘qituvchining asosiy vazifasi — bu nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga boshqarish, mustaqil fikrlashga undash va yakuniy xulosa chiqarishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bugungi zamонавиy ta’lim jarayonida bu vazifani bajarishda interaktiv metodlarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu usullar yordamida o‘qituvchi o‘quvchining fikrini darhol rad etmaydi, aksincha, unga mulohaza yuritish uchun imkon yaratadi. O‘qituvchi kerakli pallada yumshoq, nozik tarzda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi, natijada o‘quvchi o‘z xatosini o‘zi anglab yetadi. Bu esa o‘quvchida muhim ko‘nikmalar – ya’ni erkin fikrlash, tahliliy yondashuv va xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish salohiyatini rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, bu usullar ta’lim bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Interaktiv darslar jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va muloqotga asoslangan iliq muhit shakllanadi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini tinglaydi, unga hurmat bilan qaraydi. Natijada o‘quvchilarda ham o‘zaro tinglash, bir-birining fikriga e’tibor bilan yondashish, tolerantlik va muloqot madaniyati rivojlanadi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Bunday qulay va psixologik jihatdan sog‘lom muhitda o‘quvchi o‘zining qadrlanishini his qiladi, bosim va qo‘rquvsiz o‘z fikrini ochiq ifoda eta oladi. Bu esa o‘z navbatida uning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini yanada rivojlantiradi.

Interaktiv metodlardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi o‘z darsini puxta rejalahtirishi, ya’ni darsning texnologik loyihasini oldindan ishlab chiqishi lozim. Bu jarayonda u interaktiv metodlarning turli strategiya va usullarini chuqur o‘rganib, ularni maqsadga muvofiq tanlab, dars jarayoniga to‘g‘ri singdira bilishi kerak.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlar ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘quv, ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga erishgan. Ularning bu boradagi boy tajribasi interaktiv metodlarning qanday qudratga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, interaktiv metodlar zamonaviy ta’limning ajralmas bo‘lagi sifatida, o‘quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular orqali nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy maqsadlar ham samarali amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun interfaol ta’lim strategiyalarining mohiyatini tushunish, ularning ta’lim jarayoniga qiziqish bilan jalb qilinishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar bunday metodlar orqali bilim olishga ongli ravishda emas, balki tabiiy ravishda, ichki motivatsiya bilan kirishib ketadilar. Bu esa ta’limning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Matematika fanining amaldagi o‘quv dasturiga muvofiq, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga oddiy matematik ifodalar, sonli tengliklar va tenglamalar haqidagi dastlabki bilimlar beriladi. Ular xarfiy belgilar, o‘zgaruvchilar bilan tanishtiriladi hamda eng sodda tenglama va tengsizliklarni yechish ko‘nikmalarini egallashni boshlaydilar.

Shu bosqichda interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, bunday strategiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, o‘z fikrini erkin ifoda eta olish kabi qobiliyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Interfaol usullar orqali o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida sog‘lom pedagogik hamkorlik shakllanadi, bu esa o‘quv muhitini iliq va ishonchli qiladi.

Bu yerda asosan qanday darslik yoki texnik vositalardan foydalaniyatganligi emas, balki o‘qituvchining darsni qanday tashkil etayotganligi asosiy mezon sifatida qaraladi. Ya’ni, metodika – bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotdagi uslubi, bilim berishdagi yondashuvi, o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantira oluvchi strategiyalar majmuasidir.

Masalan, o‘qituvchi dars davomida misollar, ko‘rgazmalar, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarni faollikka undashi mumkin. Bu holatda ta’lim jarayoni o‘qituvchining monologiga aylanish o‘rniga, o‘zaro muloqotga asoslangan, interaktiv va samarali faoliyatga aylanadi.

Ya’ni, interfaol strategiyalar o‘quvchilarda nafaqt fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, balki ularni chuqurroq o‘ylashga, izlanishga va bilimlarni mustaqil tarzda o‘zlashtirishga undaydi. Bu esa zamonaviy ta’limning eng muhim maqsadlariga mos keladi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlar orasida nofaol metod hamon ayrim o‘qituvchilar amaliyotida uchrab turadi. Bu yondashuvda o‘qituvchi markaziy figuraga aylanadi, ya’ni asosiy axborot manbai va bosh harakatlantiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar esa, asosan, passiv tinglovchilar sifatida ishtirok etishadi. Nofaol yondashuvda bilim asosan tinglash, yozib olish va yod olish orqali

uzatiladi. Darsda bu metod ko‘proq savol-javoblar, nazorat ishlari, testlar va og‘zaki suhbatlar orqali aks etadi.

Bu uslubning samaradorligi cheklangan bo‘lsa-da, ayrim ijobiy jihatlari mavjud. Masalan, o‘qituvchidan katta tayyorgarlik talab etilmaydi va qisqa vaqt ichida ko‘p miqdordagi o‘quv materialini yetkazish imkonini beradi. Shu sababli, ba’zi tajribali pedagoglar ushbu metodni tez-tez tanlaydilar, ayniqsa vaqt chegaralangan holatlarda yoki o‘quvchilar allaqachon mavzuning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirgan bo‘lsa. Bunday vaziyatlarda, to‘g‘ri yondashuv bilan, bu metod ham ma’lum darajada ijobiy natijalar berishi mumkin.

Shunga qaramay, zamonaviy ta’lim talablari nofaol metodga nisbatan faol va interfaol yondashuvlarni afzal ko‘rishga undaydi. Faol metodlarda o‘quvchilar darsda bevosita ishtirok etadilar — savol beradilar, muammolarni hal qiladilar, munozaralarda qatnashadilar. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar esa faol yondashuvlarning mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Ular faqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni emas, balki o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ham ta’minlaydi. Interaktiv darslarda o‘qituvchi markazdan chekinib, ko‘proq yo‘naltiruvchi, fasilitator rolini bajaradi, ya’ni o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari va faoliyatini boshqarib boradi. O‘quvchilar esa bilim olish jarayonida bir-biri bilan fikr almashadilar, jamoaviy ishlaydilar va muammoni birgalikda hal qilishni o‘rganadilar.

Shunday qilib, nofaol metodlar ayrim holatlarda qulaylik tug‘dirsa-da, interfaol metodlar ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning chuqur va barqaror bilim egallashlarini ta’minalash nuqtai nazaridan afzalroqdir. Interfaol yondashuvlar orqali o‘quvchi faqat passiv tinglovchi emas, balki bilimni o‘zi izlab topuvchi, uni o‘zlashtiruvchi va amalda qo‘llovchi subyektga aylanadi. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlarni keng joriy etish dolzarb hisoblanadi.¹

¹ Yo‘ldoshev A. Interfaol ta’lim metodlari. – Samarqand: SamDU, 2018.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinfda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini yengillashtiradi, ularni o‘z fikrini erkin ifoda etishga, mantiqiy fikrlashga va ijtimoiylashuvga o‘rgatadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlari bilan uyg‘unlashadi. O‘qituvchi ushbu metodlardan to‘g‘ri foydalangan taqdirda, har bir dars mazmunli, samarali va bolalar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtayev B., Usmonxo‘jayev M. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Karimova M.Q. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2019.
3. Yo‘ldoshev A. Interfaol ta’lim metodlari. – Samarqand: SamDU, 2018.